


# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

1/2020



@buxdu1



@buxdu1 www.buxdu.uz

## ANIQ VA TABIIY FANLAR

Джураса Д.Р., Соколов Б.Ю., Шарипов М.З., Шамсиев Р.Х.	Доменная структура и магнитооптические свойства тербиеового феррита-граната в температурной области точки магнитной компенсации.....	3
Файзиев Ш.Ш., Иуддошева Н.Б.	Кучсиз ферромагнетикларда аралашма күшилганды содир бўладиган ўзгаришлар.....	8
Жумаев М.Р., Шарипов М.З., Миржонова Н.Н.	Релятивистик идеал газ зарралари тезликларининг таксимот функцияси.....	14
Абдиякулов Н.Н., Рухиллоев С.У.	Деятельность метрологического обеспечения производства обеспечивающий выпуск качественной продукции.....	19
Икрамов Р.Ф., Рахматов И.Т., Турсаева М.О.	Куёш элементларининг фотогальваник характеристикалари ва фото вахнинг нонидеаллик коэффициенти.....	24
Касимова Г.К.	Оптические системы для снятия поляризационных спектров самособранных молекул..	30
Turdiyeva G.S., To'rayeva G.X.	Movie maker, pinnale studio, adobe premiere dasturlari- videoma'lumotlarni yaratishva qayta ishlash uchun mukammal dasturlar.....	37
Атаева Г.И., Едгорова Л.Д.	Методы и алгоритмы компьютерной графики.....	43
Imomova Sh.M., Tohirov B.N.	Global bronlash tizimlari.....	48
Умаров Б.Б., Иботов Б.Х., Иботов Ж.Ж., Сохибов М.С.	Дизлектрик материаллар сиртини рангли металлар билан коплаш.....	54
Рахмонов Т.Т.	Разложения блочно-трехдиагональных матриц с нулевыми ведущими блочно-угловыми минорами.....	59
Болтаев Х.Х.	Вещественный аналог подфакторов джонса для вещественных конечных факторов.....	68
Тошева Н.А.	Регуляризованный определитель фредгольма соответствующий семействе $3 \times 3$ -операторных матриц.....	75
Zaripova G.K., Sayidova N.S., Salimova M.N., Ravshanov Sh.E.	"Tarix fanida innovatsiyalar: texnologiya, modellar va metodlar" ta'limotida elektron resurslardan soydalanish.....	82
Хусенов М.З., Хазратов Ф.Х.	Экспертная система: понятие, определение и классификация экспертных систем.....	88

## TILSHUNOSLIK

Закриллаев Ф.Н., Жумаев Э.Б.	Ўзбек тилшунослигига мати грамматикаси тадқики.....	93
Сайдов Е.С., Шарипова Л.Ш.	Рамзнинг лексик-семантик хусусиятлари.....	102
Хамроева Ш.М.	Тил корпусини дастурлаш: сунъий тилни яратиш, тил синтаксиси ва семантикаси.....	105
Gadoyeva M.I.	Ingлиз va o'zbek tillarida no'anqlik ma'nosing sonlar va "bir" so'zi orqali ifodalanishi.....	110
Асадов Т.Х.	Рақишининг сўз туркумлари билан интеграцияси ва дифференциацияси.....	115
Каримов О.	Абдулла Орипов шертийидаги метафоријик.....	120
Тоирова Г.И.	Ўзбек тили мислий корпусини яратишда лингвистик разметканинг ўрии.....	125
Аскадрова Ш.К.	Инглиз ва ўзбек тилларидаги тақрир ифода усулининг хусусиятлари.....	132
Ходжаева Д.И.	Умумий тилшуносликка оид терминларининг лексикографик таҳлили (инглиз, рус ва ўзбек тиллари материалы мисолида).....	137
Мамадалиева Н.С., Мирзажонов А.Х.	Изобразительно-выразительные средства как стилесобразующие заголовков современной газеты.....	141
Safirova M.Sh.	O'zbek kimyoifillari nomlarining ontologik xususiyallari.....	148
Ахмедова Д.Б.	Карпус лингвистикасида семантик тег категорияси: таъриба ва таҳдид.....	152
Эркинов С.Э.	Семантико-системная характеристика японско-профессиональных единиц сверхсложной структуры.....	160
Шукурова М.А.	Некоторые вопросы развития этических терминов в английском языке XVI-XVIII веков.....	165
Садуллаева Н.А.	Ўзбек тилшунослигига тўлиқиз гаплар.....	170

## TILSHUNOSLIK

UDK: 81'44

### O'ZBEK KINOFILMLARI NOMLARINING ORTOLOGIK XUSUSIYATLARI

### ОРТОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКИХ ФИЛЬМОВ

### ORTHOLOGICAL PECULIARITIES OF UZBEK MOVIES' NAMES

*Shirinova Mexrigyo Shokirovna  
BuxDU tayanch doktoranti*

*Annotatsiya.* Maqolada kino san'atining boshqa san'at turlaridan farqli jihatlari, kino tili tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari, adabiy me'yor, kino nomlari xususida fikr yuritilgan. Davr talabiga mos kinofilmlar yaratish kino tilini lingvistik aspektida tahlil etish bilan bevosita bog'liqligi ta'kidlangan. Shuningdek, mustaqillik davri ayrim o'zbek kinofilmlari nomidagi adabiy me'yordan chekinish holatlari aniqlangan. Kino nomlarida uchragan orfografik, punktuatsion, morfologik, stilistik me'yor buzilishlari tahlil qilingan.

*Tayanch so'zlar:* san'at, kino, kino tili, kino tilining xususiyatlari, kino nomlari, adabiy me'yor, ortologiya, orfografik me'yor, punktuatsion me'yor, morfologik me'yor, stilistik me'yor.

*Аннотация.* В статье анализируются некоторые аспекты киноискусства, отличающиеся от других видов искусства, понятие "язык кино" и его особенности, язык кино и литературная норма, названия кинофильмов. Утверждается, что создание фильма, соответствующего нашему времени, непосредственно связано с анализированием языка кино в лингвистическом аспекте. А также, выяснены некоторые отклонения от литературных норм в названиях узбекских фильмов в период независимости. Проанализированы орфографические, пунктуационные, морфологические, и стилистические отклонения в названиях фильмов.

*Ключевые слова:* искусство, кино, язык кино, особенности "языка кино", названия кино, литературная норма, ортология, орфографические нормы, пунктуационные нормы, морфологические нормы, стилистические нормы.

*Annotation.* The article considers some aspects of cinema art that differ from other forms of art, the concept of "language of cinema" and its features, literary norms, and the names of films. It is argued that the creation of a film corresponding to our time is directly related to the analysis of the language of cinema in a linguistic aspect. And also, some deviations from literary norms in the names of Uzbek films in the period of independence have been clarified. The spelling, punctuation, morphological, and stylistic deviations in the names of films are analyzed.

*Key words:* art, cinema, language of cinema, features of the "language of cinema", movie names, literary norm, orthology, spelling norms, punctuation norms, morphological norms, stylistic norms.

*Kirish.* Istiqlol yaratib bergen keng sharoitlar tufayli barcha san'atlar singari kino san'ati ham tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning 2018-yil 24-iyuldag'i "Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida o'zbek milliy kino sanoatini rivojlantirish, uning kino bozorida raqobatbardoshligini oshirish maqsadida bir qator vazifalar belgilab berildi. Bundan tashqari, ushbu islohotning davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasini ham aytish mumkin. Murojaatnomada kinomatografiyani 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi hamda "Kinomatografiya to'g'risida"gi Qonun ishlab chiqilishi muhim masalalar qatorida sanab o'tildi. Bu kabi islohotlarning amalga oshirilishi kino sohasining har tomonlama keng rivojlanishiga yo'l ochib beradi, deyish mumkin.

Jamiyat taraqqiyotini san'atsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki inson jamiyatdan tashqarida yashay olmaganidek, san'atsiz ham yashay olmaydi. Shu sababli san'at har bir millat ma'naviyatining bir bo'lagidir, deya qat'iy ayta olamiz. Ma'naviyatni keng targ'ib etuvchi yetakchi

san'at turlaridan biri kinodir. Chunki bu san'at turi turli yoshdag'i tomoshabinlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. U turmush tarzimizning bir bo'lagiga allaqachon aylanib ulgurgan. Kino vogelik hamda tomoshabin o'rtasida ma'naviy ko'priq vazifasini o'tab, insonga ruhiy ozuqa beradi.

Har bir san'at turi o'ziga xos tilda so'zlaydi, chunonchi, kino san'ati ham. Kino tili, eng avvalo, ekran tilidir. Uni o'rganish muammosi ko'pgina taniqli xorijiy olimlarni qiziqtirgan. S. Eyzenshteyn, V. Pudovkin, R. Armxeym, B. Balash, Z. Krokauer, Yu. Lotman, J. Sadul, Ye. Teplitsa, S. Freylix, M. Andronnikova va boshqalarning tadqiqotlarida kino tilining o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi[8]. Shuningdek, kinoning ekspressivligi, uning ildizi, san'at sohasida tutgan o'rni N. Gornitskaya, I. Vaysfeld, N. Zorka, A. Kazin, L. Kozlov, V. Mixalkovich, K. Razlogov, I. Shilova va boshqa ko'pgina kinoshunoslar tomonidan tadqiq etildi. Kino va kino tili sohasida olib borilgan bir qancha tadqiqotlarni sanash mumkin. Kuzatishlar ko'rsatdiki, kino tilini o'rganish ko'pgina sohalarning vakolatiga kirar ekan. Masalan, madaniyat, san'at, kinoshunoslik, psixologiya, estetika, tilshunoslik va boshqalar. Kino tilining aksariyat sohalar bilan aloqadorligi uni 2 ma'noda qo'llash bilan bog'liq:

**Keng ma'noda** kino tili deganda kinoni tomosha qilayotganda uni tushunish, his etish uchun ishtirot etadigan barcha unsurlar (ovozi, musiqa, joy tasviri, imo-ishoralar, so'zlar, qahramonlarning tashqi ko'rinishi, kiyimi, o'zini tutishi va b.) majmui tushuniladi.

**Tor ma'noda** esa audiovizual aloqani yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladigan so'zlar majmui tushuniladi[6].

Kino tilini tor ma'noda tushunib, uning 2 xil ko'rinishini farqlash mumkin: 1) og'zaki; 2) yozma. Kino tilining og'zaki ko'rinishi – aktyorlar nutqi hisoblanadi. Yozma ko'rinishi esa kino boshlanishi bilan ekranda namoyon bo'ladigan so'zlar, ya'ni kino nomi, ijodkorlari haqidagi yozuvlar tushuniladi. Har ikki holatda ham tomoshabinga axborot yetkaziladi.

Biz bu o'rinda asosiy e'tiborni kinofilmlar nomiga qaratamiz. Kino nomlari filmning ajralmas qismi bo'lib, eng kuchli va diqqatga sazovor pozitsiyani egallaydi va ular quyidagi lingvistik vazifalarni bajaradi: kommunikativlik (ssenariy matnining mazmuni haqida ma'lumot yetkazadi), pragmatik (ma'lumot oluvchi, ya'ni tomoshabinning his-tuyg'ulariga ta'sir etadi) kabi. Zamonaviy kino nomlarida pragmatik vazifa juda muhimdir. Kino nomlarining pragmatik yo'naltirilganligi uning tomoshabin va kino ijodkorlari o'rtasidagi vositachilik roldan kelib chiqadi.

Oxirgi yillarda suratga olingan ayrim kinofilmlar nomiga e'tiborimizni qaratamiz: "Bayram xazili" (2014), "Salom gruppadagilar" (2014), "Uring jonim, uring!" (2015), "Yuragim seniki" (2015), "Men yolg'onchiman" (2016), "Demak sevasan" (2016), "Boy bo'lma, sahiy bo'l" (2016), "Gazini bos, Jamshid!" (2017), "Haloskor" (2017), "Meni sev" (2017), "Ajab bo'libdi" (2017), "Sumalak kasting yohud uchmagan varrak" (2018), "Xiyonat yohud farishta niqobidagi shaytonlar" (2019), "Og'ufurish tergovdag'i qyynoq" (2019), "Jonim dadam" (2019), "Paxmoq kelin" (2019), "Ana xolos" (2019), "Amiran" (2019), "Jangovar qaynona" (2019), "Oh, Salima, Salima" (2019), "Muzlagan" (2019), "Asal oyi" (2019), "Taqdirsiz kelin" (2019), "Xizmat doirasi-dan tashqarida" (2019), "Janob Hot-dogchi" (2019), "Sevadi sevmaydi" (2019), "Milyoner kelin" (2019), "Meniki bo'l" (2019), "Onasini erkasi" (2019), "Qaynisingil" (2019) va hokazo.

Bu nomlarni ortologik nuqtayi nazardan o'rganishni joiz deb topdik. Dunyo tilshunosligida ortologiya (orthos – "to'g'ri", logos – "ta'limot") adabiy til me'yorlarini o'rganadigan tilshunoslik sohasi [5] sifatida e'tirof etiladi<sup>1</sup>. Yuqoridaq kinofilmlar nomida adabiy me'yorning quyidagi ko'rinishlari buzilgan:

**1. Orsografik me'yor:** "Bayram xazili" (xazili emas, hazili), "Boy bo'lma, sahiy bo'l" (sahiy emas, saxiy), "Haloskor" (haloskor emas, xaloskor), "Xiyonat yohud farishta niqobidagi shaytonlar", "Sumalak kasting yohud uchmagan varrak" (yohud emas, yoxud), "Milyoner kelin" (milyoner emas, millioner), "Og'ufurish tergovdag'i qyynoq" (og'ufurish emas, og'ufurush), "Qaynisingil" (qaynisingil emas, qaynsingil).

**2. Morfologik me'yor:** "Onasini erkasi" – bu kinofilm nomida kelishik qo'shimchasi noto'g'ri qo'llangan. Erkasi so'zidagi -si egalik qo'shimchasi o'zidan oldin qaratqich kelishigidagi

<sup>1</sup> **Qarang:** Shirinova M.Sh. Ortologiya adabiy me'yor haqidagi fan sifatida // "BuxDU ilmiy axboroti", 2019-yil, 3-son. B. 127-131. Bu maqolada ortologiya so'zining kelib chiqishi, ma'nosи, qo'llanilish sohalarini lug'atlar asosida sharhlangan hamda lug'atlarda berilgan ta'riflar umumlashtirilgan

## TILSHUNOSLIK

so'zni talab etadi. Kino nomida bunday morfologik me'yorning buzilishi sheva bilan bog'liq. Odatda, qarluq lajasida gaplashadigan ko'pgina shevalarda qaratqich va tushum kelishiklari o'rni ba'zida almashtirilgan holda qo'llaniladi.

**3. Punktatsion me'yor:** "Salom gruppadagilar" (salom so'zidan keyin vergul qo'yilishi kerak), "Uring jonom, uring!" (uring so'zidan keyin vergul qo'yilishi kerak), "Demak sevasan" (demak so'zidan keyin vergul qo'yilishi kerak).

**4. Stilistik me'yor:** "Paxmoq kelin" filmidagi "paxmoq" so'zini "kelin" so'zi bilan birga ishlatis usluban g'alizlikni keltirib chiqaradi. Paxmoq so'zining izohli lug'atda berilgan ma'nolari quyidagicha: "Paxmoq I 1sft. Tartibsiz o'sib ketgan, o'siq, hurpaygan. Paxmoq soch. 2. Shoxshabbasi tartibsiz o'sib, tarvaqaylagan sada shaklidagi. 3. Yungi yoki soch-soqoli o'siq, baroq. Paxmoq II Bir tomoni tukli, mayin va qalin ip gazlama; bumazey" [3, 579]. Lug'atda berilgan izohdan anglash mumkinki, paxmoq so'zini soch-soqolga, daraxtga nisbatan qo'llash mumkin, ammo shaxsga to'g'ridan to'g'ri qo'llash asosli bo'lmaydi. Mazkur film nomi paxmoq sochli kelin ma'nosida ishlatalgan bo'lishi mumkin. Lekin bu ma'noni ifodalash uchun soch so'zini ham keltirish zarur deb hisoblaymiz. Kelinning paxmog'i bo'lmaydi. Bundan tashqari, kelinning paxmoq so'zi bilan birga kelishi salbiy bo'yoq dorlik kasb etgan. Bu nomni eshitgan ayrim tomoshabin "kelinga nisbatan paxmoq so'zini ishlatsa bo'lar ekan", degan xulosaga keladi va o'z nutqida beixtiyor ishlatib yuboradi.

"Jangovar qaynona" – bu kinofilm nomini eshitgan tomoshabin qaynonaning ham jangovari bo'lar ekanmi, degan savolni berishi tabiiy. Jangovar so'zi "urush, jangga oid, urush-jang bilan bog'liq; janglarda chiniqqan, urush-janglarda o'zini ko'rsatgan; shijoatli; ko'chma ma'noda kundalik, har doimgi, faol; otashin" [3, 272] kabi ma'nolarda qo'llaniladi. Demak, bu so'z ko'proq janglarda qatnashgan va bu janglarda o'zini ko'rsatgan botir, qo'rmas insonlarga nisbatan qo'llaniladi. Endi aytinchchi, qaysi qaynona urushda, jangda qatnashadi yoki o'zining botirligini namoyish etadi? To'g'ri, qaynona va kelin yoki qaynona va boshqa oila a'zolari o'rtasida urush, janjal, kelishmovchiliklar bo'lishi mumkin, ammo bu kelishmovchilikni jangovar so'zi ifodalaydigan jang, urush bilan aralashtirmaslik zarur. Jangovar so'zining ko'chma ma'nosidan kelib chiqib, ya'ni "faol qaynona, otashin qaynona" ma'nosida tushunish ham o'rinali emas. Umuman olganda, jangovar so'zining o'z ma'nosida ham, ko'chma ma'noda ham qaynona so'zi bilan birga kelishini noo'rin deb hisoblaymiz.

"Taqdirsiz kelin" – inson taqdirsiz bo'lishi mumkin emas. Har bir insonning o'z taqdiri bor. Lug'atlarda taqdirsiz so'zi izohlanmagan. Mantiqan bu ikki so'z o'zaro birikmagan, ya'ni taqdirsiz kelin so'z birikmasi shaklan, moddiy tomonidan to'g'ri shakllangan, lekin ma'no tomonidan bir-biriga muvofiq emas.

"Gazini bos, Jamshid!" – bu jumla kinofilm nomini ifodalashda umuman noloyiq. Birinchidan, jumla so'zlashuv uslubiga xos, ikkinchidan, usluban gazini so'zini o'rniiga gazni qo'llash zarur edi, uchinchidan, jumlada ma'no-mazmun kemtik. Kino nomida g'alizlik, bachkanalik ufurib turibdi.

"Uring jonom, uring!" – bu kinofilm nomini eshitgan inson hayratga tushadi. Nega bunday nom qo'yilgan, inson o'ziga nisbatan ham uring so'zini ishlاتishi mumkinmi? Fikrimizcha, kinoga bunday nom qo'yish yaramaydi.

"Yuragim seniki", "Meni sev", "Demak sevasan", "Sevadi sevmaydi", "Meniki bo'l" kabi kinofilmlar nomi xorij kinolari nomining tarjimasi bilan bog'liq. Fikrimizcha, kinofilm nomini tanlashda o'zbek mentalitetini, xalq ma'naviyati va maskurasini inobatga olish zarur. O'zbek xalqi ibo, hayo, nomus, ori bilan o'zga xalqlardan ajralib turadi. Bu kabi azaliy qadriyatlarga, so'z (kino nomi)ga e'tiborsizlik va shu tarzda ommaga taqdim etish millat taqdiriga bolta urish bilan barobardir.

"Men yolg'onchiman" – bu nomni eshitganimizda yolg'onchiligi bilan maqtanayotgan, yolg'onchilagini hammaga ko'z-ko'z qilayotgan shaxs ko'z oldimizga keladi. Yolg'onchilik fazilatmi yoki illat!? So'zda ham sehr bor, deydi dono xalqimiz. Bu sehrni faqat va faqat ezgulik yo'lida ishlatish kerak.

## TILSHUNOSLIK

“Ajab bo’libdi”, “Ana xolos” kabi kinofilmlar nomida so’zlashuv uslubi yetakchilik qiladi. “Juda boy, chiroyli tilimiz bor. Bu tilda ifoda etib bo’lmaydigan fikr, tuyg’u yo’q”, – degan edi A.Qahhor. Kino nomlarida ham betakror so’zlarimizdan foydalanishimiz hamda tilimizning jozibadorligini tomoshabinlarga yetkazishimiz lozim. Bu bilan ona tilimizning rivojiga ozgina bo’lsa ham, hissa qo’shgan hisoblanamiz.

“Og’ufurish tergovdagagi qiyonoq” – ushbu qo’llanishda usluban xatolik yaqqol kuzatiladi. Mazkur qo’llanish bilan “Og’ufurushning tergovdagagi qiyonog’i” yoki “Og’ufurush yoxud tergovdagagi qiyonoq” demoqchi bo’lishgandir. Bu esa tomoshabin uchun qorong’u.

“Sumalak kasting yohud uchmagan varrik”, “Salom gruppadagilar”, “Janob Hot-dogchi”, “Ariman” kabi kinofilmlar nomi ham talab doirasida emas. Tilimizda kasting, grupp, hot-dog degan o’zlashmalar faqat so’zlashuv tilida qo’llaniladi. Gruppa so’zi lug’atda guruh, to’da birliklarining sinonimi sifatida berilgan. Kino nomidagi grupp so’zi esa telegram kanalida tashkil qilingan onlayn muloqot qiluvchi guruh ma’nosida qo’llangan. Bir qarashda bu film nomida zamonaviylik bordek tuyuladi, aslida esa kun mavzusi darajasida olib chiqiladigan nom emas.

Kasting so’zi hozirgi kunda san’atning turli sohalarida “tanlov” ma’nosida qo’llanilyapti. Mazkur kinoda esa sumalak so’zi bilan yonma-yon ishlataliyapti. Bu o’zlashma so’zni keng yoyishdan dalolat beradi. Uning ekvivalenti bo’lgan o’zbekcha tanlov so’zini ishlatmaslik o’z tilimizga e’tiborsizlik, humatsizlikdan o’zga holat emas.

Hot-dog (inglizcha: hot dog - so’zma-so’z tarjimada “issiq it” degan ma’noni anglatadi) maxsus yumshoq non orasiga go’sht mahsulotlari qo’yilgan, qaylali, tezpishar taom turi. Ko’proq AQShda tayyorlanadi va eng ko’p iste’mol qilinadi. Hot-dogchi so’zining oldidan janob so’zini ishlatib kinofilmga nom berish, eng avvalo, shu ovqat turi hamda ovqatni tayyorlovchi shaxsni diqqat markaziga olib chiqish o’ta bema’nilikdir, chunki, birinchidan, bu taom o’zbeklarning milliy taomi emas, ikkinchidan, hot-dog so’zini keng yoyish boshqa millat vakillarining madaniyatini, leksik birligini targ’ib qilishdan o’zga narsa emas.

Ariman so’zi o’zbek tili lug’atlarida aks etmagan. Qanday ma’no anglatishi noma’lum bo’lgan bu so’zni kinofilm nomiga aylantirishdan maqsad nima? Bu bizga qorong’u. Har holda tushunarli so’z tanlangani ma’qul edi. Zero, donolardan biri aytganidek, so’z qanchalik oddiy bo’lgani sari shunchalik aniq bo’ladi. So’z qanchalik o’rnida ishlatilgani sari jumlani shu qadar kuchli va ishonchli qiladi.

Afsuski, yurtimizda ekran yuzini ko’rayotgan ko’pgina o’zbek kinofilmlariga xorij ta’siri ko’proq uchrayapti. Buning sabablarini turlicha izohlash mumkin. Biroq har qanday holatda nomlar, avvalo, davlat tili doirasida bo’lishi lozim. Ajnabi so’zlardan o’rinsiz foydalanish, bir tomonidan ona tilimizga soya solsa, boshqa tomonidan yoshlarimizning “ommaviy madaniyat” unsurlariga ko’proq duchor bo’lishlariga zamin yaratib beradi.

Xulosa. Biz yuqorida kinofilmlar nomidagini uchragan adabiy me’yor “tartibsizliklar”idan ayrimlarini tahvilga tortdik. Kino nomlari ssenariy mazmuni bilan qay darajada mos kelgan-kelmagani alohida masala. Ayni masala xususida to’xtalmadik, chunki bu boshqa bir tadqiqotning materiali vazifasini o’taydi. Tahillardan kuzatish mumkinki, ayrim kinofilm nomlaridagi holat qoniqarli emas. Albatta, har bir tilda nom yaratishning muayyan bir talab va me’zonlari mavjud. Xususan, kinofilmlar nomi ssenariyning mohiyatini aks ettirishi, xalqning umummilliy, ma’risiy-madaniy qarashlari, an’analari, mentaliteti, dunyoqarashi, ruhiyatiga zid kelmasligi shart. U insonda yolg’on tasavvur uyg’otmasligi, uni o’ziga jalb etishi hamda xotirasida tez va oson saqlanib qolishi, barcha uchun tushunarli, eng muhimi, kino va tomoshabin o’rtasida aloqa ko’prigi vazifasini bajarishi lozim. Shundagina tanlangan nom kinoning ommalashishi, bozorgirligini ta’minlaydi.

### ADABIYOTLAR

- Мирзиёев Ш.М. Миллий киноиндустряни ривожлантириши бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида 2018 йил 24 июль, ПК-3880-сон [Электрон ресурс] <http://www.lex.uz/ru/docs/3835308>
- Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 24.01.2020. [Электрон ресурс] <https://president.uz/uz/lists/view/3324>
- Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 2 жисидлик. 1-жисл. – М.: Рус тили, 1981. – 632 б.
- Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 2 жисидлик. 2-жисл. – М.: Рус тили, 1981. – 715 б.

## ТИЛШУНОСЛИК

- 
5. Ширинова М.Ш. Ортотоғсия адабий мәсьерд ұқыдағы фан сиғатында. // БұхДУ илмий ахбороти. 2019 шаң 3-сон. 127-131-б.
6. Ширинова М.Ш. Кино тили түзінчесі өз уніке үзілік хос хусусиятари. // БұхДУ илмий ахбороти. 2019 шаң, 4-сон
7. Shirinova M.Sh. The concept of film language and its studiedness in linguistic aspect. Актуальные вопросы современной науки и образования: сборник статей Международной научно-практической конференции. В 2 ч. Ч. 1. – Пенза: МЦНС "Наука и Просвещение", – 2020. – С. 157-159.  
[https://studref.com/473325/zhurnalistika/yazyk\\_kino\\_yazyk\\_ekran](https://studref.com/473325/zhurnalistika/yazyk_kino_yazyk_ekran)
- 

УДК: 410

### КОРПУС ЛИНГВИСТИКАСЫДА СЕМАНТИК ТЕГ КАТЕГОРИЯСИ: ТАЖРИБА ВА ТАХДИЛ

### КАТЕГОРИЯ СЕМАНТИЧЕСКИЙ ТЭГ В КОРПУСНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ: ЭКСПЕРИМЕНТ И АНАЛИЗ

### SEMANTIC TAG CATEGORY IN CORPUS LINGUISTICS: EXPERIENCE AND ANALYSIS

Ахмедова Дилдора Баҳодировна  
БұхДУ таянч докторантты

**Аннотация.** Мақолада корпус бирліктарини семантик аннотациялашынде мұхим категориялары санаған семантик разметка, семантик разметка тизими, оператор, классификатор, күмәннолипик, семантик фильтрнинг үзігінде хос хусусияти ҳамда имконияттары ҳақида бағыт берилген. Семантик тег тизимиге түрлі өндешуів және қараштар ҳақида фикр берілген, семантик теглердің мұаммалары, күмәннолипик және омонимик мұаммосини ечиши ҳамда фильтрләшігінде дөйрәділдік мұнайсулар; рус, калмық, башқирд, чуваш тили корпусында семантик разметкасынан дөйрәділдік мұнайсулар тәжірибелі.

**Таянч сұздар:** семантик разметка, семантик тег, разметка тизими, оператор, классификатор, күмәннолипик, семантик фильтр.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены особенности и возможности важнейших категорий семантической аннотации корпусных единиц, таких как, семантическая разметка, система семантической разметки, оператор, классификатор, многозначность, семантический фильтр. Высказано мнение о различных подходах и взглядах на систему семантических тегов, приведены рассуждения о пути решения проблемы семантических тегов, их многозначности и омонимии, а также представлены некоторые рассуждения, касающиеся семантических фильтров. Проведён анализ задач семантической разметки языкового корпуса русского, калмыцкого, башкирского и чувашского языков.

**Ключевые слова:** семантическая разметка, семантический тег, система разметки, оператор, классификатор, многозначность, семантический фильтр.

**Annotation.** This article discusses the semantic markup system, the semantics markup, the operator, the classifier, the versatility, the properties and capabilities of semantic filtering, which are important categories for the semantic annotation of corpus units. Different approaches and theories to semantic tag system are expressed; some considerations for solving and filtering semantic touch problems, versatility and homonymic; an analysis of the semantic circuitry of the Russian, Kalmyk, Bashkir, Chuvash language is given.

**Key words:** semantic markup, semantic tag, markup system, operator, classifier, versatility, semantic filter.

Кириш. Разметканинг исталған түри лингвистик ва дастурлық таъминотни талаб күлганидек, семантик разметка ҳам лексик/лексикографик/семантик базалар асосида амалға ошириләди. Мақолада рус тили миллий корпусы семантик разметкасынан дөйрәділдік мұнайсулар тәжірибелі.